O‘ZBEKISTONDA YO’L-TRANSPORT SOHASINI TAKOMILLASHTIRISHDA HUQUQIY ME’ZONLARNING YARATILISHI.

Sadirov Aziz Sirojiddinovich

Qarshi davlat texnika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Mazkur maqolada O‘zbekistonda yo‘l-transport sohasini takomillashtirish jarayonida shakllangan huquqiy-me’yoriy asoslar tahlil qilinadi. Mustaqillik yillarida transport tizimini boshqarish, avtomobil va temir yo‘l transporti faoliyatini tartibga solish, transport xizmatlari bozorida raqobat muhitini shakllantirish, tashishlar xavfsizligini ta’minlash hamda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning ahamiyati yoritiladi. Shuningdek, transport sohasida davlat boshqaruvi tizimining bosqichma-bosqich takomillashtirilishi, Transport vazirligining tashkil etilishi va transport faoliyatining yagona huquqiy asoslarini belgilab bergan qonunchilik hujjatlari ko‘rib chiqiladi. Maqolada amalga oshirilgan huquqiy islohotlarning yo‘l-transport tizimi samaradorligi, xavfsizligi va boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirishdagi o‘rni ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: yo‘l-transport tizimi, transport siyosati, huquqiy me’yorlar, normativ-huquqiy hujjatlar, avtomobil transporti, temir yo‘l transporti, transport xavfsizligi, transport infratuzilmasi, transport-logistika, davlat boshqaruvi, transport islohotlari, Transport vazirligi.

Аннотация. В данной статье анализируются нормативно-правовые основы, сформировавшиеся в процессе совершенствования дорожно-транспортной сферы Узбекистана. Рассматривается значение нормативно-правовых актов, принятых в годы независимости и направленных на совершенствование управления транспортной системой, регулирование деятельности автомобильного и железнодорожного транспорта, формирование конкурентной среды на рынке транспортных услуг,

обеспечение безопасности перевозок, а также развитие транспортно-логистической инфраструктуры. Особое внимание уделяется поэтапному совершенствованию системы государственного управления в транспортной сфере, созданию Министерства транспорта и формированию единой правовой основы транспортной деятельности. В статье раскрывается роль правовых реформ в повышении эффективности, безопасности и качества управления дорожно-транспортной системой страны.

Ключевые слова: дорожно-транспортная система, транспортная политика, правовые нормы, нормативно-правовые акты, автомобильный транспорт, железнодорожный транспорт, транспортная безопасность, транспортная инфраструктура, транспортная логистика, государственное управление, транспортные реформы, Министерство транспорта.

Abstract. This article analyzes the legal and regulatory framework formed in the process of improving the road transport sector in Uzbekistan. It examines the significance of regulatory legal acts adopted during the years of independence aimed at improving transport system management, regulating road and railway transport activities, developing a competitive environment in the transport services market, ensuring transport safety, and advancing transport and logistics infrastructure. Particular attention is paid to the gradual improvement of public administration in the transport sector, the establishment of the Ministry of Transport, and the formation of a unified legal framework for transport activities. The article also highlights the role of legal reforms in improving the efficiency, safety, and management mechanisms of the country’s road transport system.

Keywords: road transport system, transport policy, legal norms, regulatory legal acts, road transport, railway transport, transport safety, transport infrastructure, transport logistics, public administration, transport reforms, Ministry of Transport.

Sovet davrida O‘zbekiston transport tizimi markazlashtirilgan iqtisodiy boshqaruv asosida shakllandi. Respublika iqtisodiyotining ittifoq manfaatlariga

bo‘ysundirilishi transport tarmoqlarining yo‘nalishi va rivojlanishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. O‘zbekistonning dengiz yo‘llariga to‘g‘ridan-to‘g‘ri chiqish imkoniyati mavjud emasligi esa quruqlik transporti, ayniqsa avtomobil va temir yo‘l tarmoqlarining ahamiyatini oshirdi.

Mazkur davrda hududlar o‘rtasidagi ichki transport aloqalarini ta’minlashda avtomobil yo‘llariga alohida e’tibor berildi. Temir yo‘l qurilishi katta mablag‘ talab qilgani sababli ayrim hududlarni o‘zaro bog‘lashda avtomobil transportidan keng foydalanildi. Natijada avtomobil tashuvlari mahalliy va hududlararo transport aloqalarining muhim qismiga aylandi. Bunday tizim sovet davlati parchalanguniga qadar saqlanib qoldi [1].

O‘zbekiston mustaqillikka erishgach, transport tizimini milliy iqtisodiyot manfaatlariga mos ravishda qayta tashkil etish zarurati yuzaga keldi. Mamlakat hududlarining o‘zaro bog‘liqligini mustahkamlash, transport infratuzilmasini yangilash va xalqaro transport tizimlariga integratsiyalashish davlat siyosatining muhim yo‘nalishlaridan biriga aylandi [2].

Mustaqillikning dastlabki yillarida transport sohasidagi xalqaro hamkorlikka ham e’tibor kuchaydi. 1991-yil 30-dekabrda Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi davlatlari o‘rtasida “Transport sohasidagi prinsiplar va o‘zaro munosabatlarning shart-sharoitlari to‘g‘risida”gi Bitim imzolandi. Ushbu hujjat davlatlar o‘rtasidagi transport aloqalarini saqlash va tashuvlarni muvofiqlashtirish uchun huquqiy asos bo‘lib xizmat qildi [3].

Shu bilan birga, transport tarmoqlarining boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan qator huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 1992-yil 4-fevraldagi 44-son qarori bilan havo transportini boshqarish tizimi qayta tashkil etildi. Prezidentning 1993-yil 8-yanvardagi PF-538-son Farmoni asosida “O‘zavtotrans” davlat aksionerlik korporatsiyasi tashkil qilindi. 1993-yil 8-fevraldagi 65-son qaror bilan “O‘zbektransqurilish” uyushmasi faoliyatining tashkiliy asoslari belgilandi. 1994-yil 7-noyabrdagi PF-982-son Farmon esa “O‘zbekiston temir yo‘llari” davlat-aksionerlik kompaniyasini tashkil etishga asos bo‘ldi [4].

Mazkur islohotlar natijasida transport sohasini markazlashgan sovet boshqaruv tizimidan milliy boshqaruv modeliga o‘tkazish jarayoni boshlandi. Keyingi bosqichlarda avtomobil va daryo transportida davlat nazoratini kuchaytirish, transport xizmatlari bozorida raqobatni rivojlantirish, harakat xavfsizligini ta’minlash hamda transport vositalarining texnik va ekologik holatini nazorat qilish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilandi.

Avtomobil va daryo transportini yagona boshqaruv tizimi asosida muvofiqlashtirish hamda davlat nazoratini takomillashtirish maqsadida Vazirlar Mahkamasining 1998-yil 11-iyuldagi 296-sonli “O‘zbekiston avtomobil va daryo transporti agentligini tashkil etish to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [5]. Mazkur qaror bilan ushbu transport tarmoqlarini boshqarishning yangi institutsional tizimi shakllantirildi.

1998-yil 29-avgustda qabul qilingan 674-I-sonli “Avtomobil transporti to‘g‘risida”gi Qonun esa sohadagi munosabatlarni huquqiy jihatdan tartibga solishning asosiy mexanizmlarini belgilab berdi [6]. Qonunda avtomobil transporti faoliyatining tashkiliy va huquqiy asoslari, tashuvchilar hamda transport xizmatlaridan foydalanuvchilarning huquq va majburiyatlari mustahkamlandi. Shu tariqa avtomobil transporti bozorini rivojlantirish uchun zarur huquqiy baza yaratildi.

2001-yildan boshlab transport tarmoqlarida monopoliyadan chiqarish va bozor tamoyillarini kengroq joriy etishga qaratilgan islohotlar yangi bosqichga ko‘tarildi. Prezidentning 2001-yil 2-martdagi PF-2815-sonli “Temir yo‘l transportini monopoliyadan chiqarish va aksiyalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmoni temir yo‘l korxonalarini qayta tashkil etish, aksiyalashtirish va xizmatlar bozorida raqobat muhitini shakllantirishga qaratildi [7].

Shuningdek, 2001-yil 4-iyundagi PF-2871-sonli “Avtomobil transporti sohasida monopoliyadan chiqarish va boshqaruvni takomillashtirish to‘g‘risida”gi Farmon bilan xususiy tashuvchilar faoliyatini kengaytirish, mulkchilik shaklidan qat’i nazar tashuvchilar uchun teng sharoit yaratish hamda avtomobil va daryo transportini boshqarish tizimini takomillashtirish vazifalari belgilandi [8]. Natijada

transport sohasida davlatning bevosita xo‘jalik boshqaruvidagi ishtirokini qisqartirish va raqobat mexanizmlarini kengaytirishga qaratilgan institutsional o‘zgarishlar jadallashdi.

Respublika transport tizimini kompleks rivojlantirish, turli transport tarmoqlari faoliyatini o‘zaro muvofiqlashtirish hamda yuk va yo‘lovchi tashish samaradorligini oshirish maqsadida 2004-yil 11-oktabrda Prezidentning PF-3498-sonli “O‘zbekiston Transport va transport kommunikatsiyalari uyushmasini tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoni qabul qilindi [9]. Uyushmaning asosiy vazifalaridan biri temir yo‘l, havo, avtomobil va daryo transporti faoliyatini muvofiqlashtirish hamda yagona transport tizimini rivojlantirishdan iborat edi.

Transport sohasidagi huquqiy tartibga solishning ayrim yo‘nalishlari keyingi yillarda ham takomillashtirildi. Jumladan, Vazirlar Mahkamasining 2006-yil 18-avgustdagi 174-son qarori bilan xorijiy davlatlarning diplomatik va konsullik vakolatxonalari hamda ularning xodimlari foydalanadigan avtotransport vositalarini O‘zbekiston hududiga vaqtincha olib kirish tartibiga aniqlik kiritildi [10].

2000-yillarning ikkinchi yarmida mamlakat transport siyosatida tranzit salohiyatidan samarali foydalanish va xalqaro transport yo‘laklariga integratsiyalashuv masalalari ustuvor ahamiyat kasb etdi. Bunda avtomobil, temir yo‘l va havo transportini o‘zaro bog‘lovchi zamonaviy logistika infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

Shu maqsadda Prezidentning 2009-yil 21-maydagi PQ-1116-sonli “Respublikaning transport-tranzit infratuzilmasini yanada rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [11]. Qarorda, xususan, Navoiy aeroporti bazasidagi xalqaro intermodal logistika markazidan samarali foydalanish, tranzit yuk tashish hajmini oshirish hamda transport-logistika infratuzilmasini rivojlantirishga qaratilgan chora-tadbirlar belgilandi. Bu transport tizimini xalqaro yuk oqimlariga moslashtirish va O‘zbekistonning tranzit imkoniyatlarini kengaytirishga xizmat qildi.

Transport va bojxona sohasidagi huquqiy mexanizmlarni takomillashtirish

maqsadida Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 13-apreldagi 106-sonli “O‘zbekiston Respublikasida tovarlar va transport vositalarini vaqtinchalik chetdan olib kelish (chetga olib chiqish) shartlari to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi [12]. Mazkur hujjat tovarlar va transport vositalarini vaqtinchalik olib kirish hamda olib chiqishning bojxona tartibini belgilab, ushbu jarayonlarni huquqiy jihatdan tartibga soldi.

Transport xavfsizligini ta’minlashda haydovchilarni sifatli tayyorlash muhim omil hisoblanib, Vazirlar Mahkamasining 2015-yil 30-apreldagi 106-son qarori bilan avtomototransport va shahar elektr transporti vositalari haydovchilarini tayyorlash hamda qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish choralari belgilandi [13]. Unda ta’lim jarayoniga zamonaviy o‘qitish usullarini joriy etish va haydovchilarning kasbiy tayyorgarligini oshirishga e’tibor qaratildi.

Avtomobil transportini boshqarishni takomillashtirishning navbatdagi bosqichi Prezidentning 2018-yil 6-martdagi PQ-3589-sonli “Avtomobil transportini boshqarish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori bilan bog‘liq bo‘ldi [14]. Qaror sohada boshqaruv samaradorligini oshirish, tashishlar xavfsizligini ta’minlash, xizmatlar bozorini rivojlantirish hamda zamonaviy axborot texnologiyalarini joriy etishga qaratildi.

2019-yilda transport sohasida davlat boshqaruvi tubdan qayta tashkil etildi. Prezidentning 2019-yil 1-fevraldagi PF-5647-son Farmoni bilan O‘zbekiston avtomobil transporti agentligi negizida O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi tashkil etildi [15]. Shu sanadagi PQ-4143-son qaror bilan vazirlik faoliyati, tashkiliy tuzilmasi va asosiy vazifalari belgilandi [16]. Natijada avtomobil, temir yo‘l, havo, daryo transporti, metropoliten va yo‘l xo‘jaligi sohalarida yagona davlat transport siyosatini amalga oshiruvchi boshqaruv tizimi shakllantirildi.

Transport sohasidagi huquqiy asoslarni yagona tizimga keltirishda 2021-yil 9-avgustdagi O‘RQ-706-sonli “Transport to‘g‘risida”gi Qonunning qabul qilinishi muhim ahamiyat kasb etdi [17]. Qonun transport faoliyatining asosiy prinsiplari, davlat boshqaruvi, transport xizmatlarini tashkil etish hamda transport turlarining o‘zaro hamkorligiga oid umumiy huquqiy asoslarni belgilab berdi.

Umuman olganda, mustaqillik yillarida O‘zbekistonda transport infratuzilmasini rivojlantirish bo‘yicha amalga oshirilgan davlat siyosati iqtisodiy o‘sish, hududiy rivojlanish, aholi bandligi va turmush darajasini oshirishga bevosita ta’sir ko‘rsatdi. Ushbu siyosat natijasida transport sohasi milliy iqtisodiyotning tayanch tarmoqlaridan biriga aylanishi bilan birga, O‘zbekistonning mintaqaviy va global transport-logistika tizimidagi o‘rni sezilarli darajada mustahkamlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Gulmatov U. “O‘zbekiston respublikasida transport siyosati (1991 – 2023-yillar)”. Tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. –T., 2025. -B.13.

2. Sherqo‘ziyev S. Mustaqillik yillarida O‘zbekiston transport infratuzilmasining rivojlanish tarixi. // Ilm fan taraqqiyotida raqamli iqtisodiyot va zamonaviy ta’limning o‘rni hamda rivojlanish omillari. 11-To’plam 3-son Noyabr, 2025. –B.85.

3. O’zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to’plami. https://lex.uz/uz/docs/-2739706

4. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1993-y., 2-son, 85-modda, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Kengashining Axborotnomasi, 1994-y., 11-12-son, 288-modda.

5. O’zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to’plami.

6. “Xalq so'zi” gazetasi. 1998-yil 30-avgust soni. Nashr raqami №175-176 (1956-57)

7. “Xalq so'zi” gazetasi. 2001-yil 3-mart soni. Nashr raqami №47 (2609)

8. “Xalq so'zi” gazetasi. 2001-yil 5-iyun soni. Nashr raqami №109 (2671)

9. “Xalq so'zi” gazetasi. 2004-yil 12-oktabr soni. Nashr raqami №212 (3487)

10. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari to‘plami, 2006-y., 34-35-son, 343-modda.

11. O’zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlari to’plami. https://lex.uz/uz/docs/-1517811

12. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2013-y., 16-son, 217-modda.

13. O‘zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to‘plami, 2015-y., 17-son, 209-modda.

14. “Xalq so'zi” gazetasi. 2018-yil 7-mart soni. Nashr raqami №45 (7003)

15. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2019-y., 06/19/5647/2591-son.

16. Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 07.02.2019-y., 07/19/4143/2590-son.

17. Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, 10.08.2021-y., 03/21/706/0774-son.